




# **İqlim Harakati va Ekologik Barqarorlik Strategiyasi**

**Climate action and environmental sustainability strategy**



Kirish;

1. Buxoro davlat universiteti 2021-2026 mo'ljalangan Ekologik barqarorlik strategiya rejasida quyidagi ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratadi:

- 1. Tadqiqot.** Ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar va faollikni oshirish.
- 2. O'quv dasturi.** Barcha ta'lim yo'nalishi talabalarga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha fanlarni o'qitish.
- 3. Energiya.** Energiya iste'moli bilan bog'liq uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha muqobil energiyadan binolarni yoritish va isitishga o'tish.
- 4. "Yashil makon" umummilliy loyihasi.** Universitetning biologik xilma-xillikni oshirish va tur tarkibini boyitish. Mavjud daraxtlarni o'rganish. Universitet "Yashil makon" platformasini yaratish.
- 5. Chiqindilar muammosi.** Universitet hududida hosil bo'ladigan chiqindilarni zararsizlantirish va qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish.

## **2. Strategiya ushbu tamoyilga asoslanadi:**

- ✓ Universitet boshqaruvi va qarorlar qabul qilish tizimiga ekologik va atrof muhit barqarorlikni kiritish;
- ✓ Birinchi bosqichda uglerod chiqindilari va biologik xilma-xillikka ta'siri bo'yicha yillik hisobot tizimini ishlab chiqish.
- ✓ Strategiyani qo'llab-quvvatlash va ishtirok etish uchun xodimlar va talabalar bilan birgalikda keng ko'lamli hamkorlik dasturini ishlab chiqish.
- ✓ Keng qamrovli loyihalar ishlab chiqish va halqaro grantlarni jalb qilish
- ✓ Xodimlar va talabalar o'rtasida Ekologik aksiyalarni tashkil etish
- ✓ "Yashil makon" umummilliy loyihasiga xodimlar va talabalarni ishtirokini oshirish.
- ✓ Salomatlik va sog'lomlashtirish tadbirlarni oshirish

MMC

**3. Strategiyani amalga oshirishda quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:**

1. Normativ-huqukiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish — xalqaro normalarni implementatsiya qilish, ekologik qonunchilikni kodlashtirish, ekologik sugʻurtalash, audit va strategik ekologik baholash tizimini joriy etish, ekologik sertifikatlashtirishni muvofiqlik sertifikati tizimiga integratsiya qilish, atrof muhit ifloslanishini hisoblab chiqishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

2. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish — tabiiy resurslardan ularning buzilishini istisno etadigan tarzda oqilona foydalanish, majburiy ekologik ekspertiza oʻtkazish, ekotizimlarning oʻz potensial sigʻimini qayta tiklash imkoniyatlarini baholash;

3. Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish — tashlanmalarni tashlash uchun toʻlov miqdorlarini ularning hajmiga hamda atrof muhit va aholi sogʻligi uchun xavfliligiga bogʻliqligi, atrof muhitni muhofaza qilishni budjetdan moliyalashtirishning maqbul darajasi;

4. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish — atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining huquq hamda vakolatlarini aniq chegaralash, ekologik yoʻnalishdagi barcha organlarni yagona davlat organi doirasida optimal darajada markazlashtirish va qarorlar qabul qilish uchun unga zarur, asoslantirilgan vakolatlar berish, nazorat organlarini moddiy-texnik jihozlashning maqbul darajasi;

5. Kompleks ekologik monitoringni olib borish — atrof tabiiy muhitning yagona davlat ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish, axborot resurslari fondini shakllantirish;

6. Innovatsion texnologik jarayonlar va metodikalarni ishlab chiqish — ekologik toza texnologiyalar, ishlab chiqarishlar, xom ashyo, materiallarning turlari, mahsulotlar va uskunalarning ilmiy ishlanmalariga, ekotizimlarning zaifligini va tabiiy muhit ifloslanish darajasining aholi salomatligiga va atrof muhit obyektlariga taʼsirini tadqiq etishga investitsiyalar kiritish;

7. Ekologik madaniyat va taʼlimni shakllantirish — fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik taʼlimi kompleks

tizimini tashkil etish, atrof muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi;

8. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — atrof muhitning xavfsiz darajasini saqlab qolish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish ishida xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarida ishtirok etish, atrof muhitni muhofaza qilishga va tabiatdan oqilona foydalanishga qo'shimcha tashqi investitsiyalarni jalb etish.

9. O'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash

4. Buxoro davlat universiteti Ekolog olimlari tomonidan

4.1. Suv va havoning ifloslanishi monitoringi texnologiyalari.

4.2. Tabiatni muhofaza qilish ilmi va texnologiyalari tadqiqotlari.

4.3. Ekologik ta'lim, mutaxassislarni tayyorlash va targ'ibot.

4.4. Tabiatni muhofaza qilish jarayonlarini boshqarish va biologik turlarni himoya qilish.

4.5. Ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyasi.

4.6. Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar, qonun-qoidalar, siyosat va standartlar, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishi va mahsulotlari uchun ekologik standartlar.

4.7. Tomonlar kelishib olgan atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga taalluqli hamkorlikning boshqa sohalarida ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

**5. Buxoro davlat universiteti kimyogar olimlari tomonidan Ekologik va atrof-muhit holati barqarorlik bo'yicha quyidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.**

5.1. Tekstil korxonasi oqava suvini kimyoviy tozalashdan oldin sexdan chiqayotgan oqava suv tarkibini kimyoviy tahlilini amalga oshirish zarur.

5.2. Oqava suv tarkibini kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra suvni tozalash uchun kerak bo'ladigan reaktivlar (temir (II) sulfat, ohak eritmasi, uniflok) miqdorini hisob-kitob qilish talab etiladi. Ushbu jarayonda oqava suv haroratini 25 O S gacha sovutish, hamda oqava suvning muhiti (rN) ni aniqlash talab etiladi.

5.3. Oqava suvga kimyoviy reaktivlar bilan ishlov bergandan so'ng kamida 30 minut davomida suvni saqlash hovuzlarida( hovuz hajmi 1500-2000 m<sup>3</sup>, kamida 2 ta hovuz bo'lishi shart) saqlanadi.

5.4. Oqava suvni tozalash natijasida hosil bo'ladigan cho'kmani hovuz tubidan yig'ib olish qurilmasi orqali hovuz doimiy tozalanib turiladi.

5.5. Tozalangan oqava suv tarkibini yana bir bor kimyoviy tahlil qilinib, kanalizatsiya tizimiga yuboriladi.

**6. “Yashil makon” umummilliy loyihasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yurtimizda yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish va bu orqali respublikamizda yashil maydonlarni ko'paytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buxoro davlat universitetida hozirgacha ushbu loyiha doirasida mingdan ortiq daraxtlar o'tqazilgan bo'lsa, kelajakda ushbu loyiha doirasida universitet milliy bog'larini yaratish, “Bir talaba –bir ko'chat” aksiyalarini o'tkazish rejalashtirilgan. Shu bilan bir qatorda quyidagilarni bajarish rejalashtirilgan.

6.1. Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi va O'zbekiston Ekologik partiyasi Buxoro viloyati bo'limi bilan birgalikda yoshlarda atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirish, tabiatni saqlash, havo, suv va tuproq ifloslanishiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ziyon yetkazilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan ekologik aksiyalarni tashkil etish;

6.2. Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi atrof muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari bo'yicha professor-o'qituvchilar va talabalar fikrini o'rganish yuzasidan yiliga kamida bir marta ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish.

Universitetda atrof muhitni muhofaza qilishning institutsional muammolari yechish

Buxoro davlat universitetida barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha sektorlarni shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot sektorlarini rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqishda ekologiyaga oid holatlar yetarli darajada inobatga olinishi.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish universitetida samarali ekologiya siyosatini olib borishning g'oyat muhim sharti hisoblanadi.

6.3. Universitetning atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazorati

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi nazorat tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

6.4. Atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash

Inson salomatligi uchun qulay sharoitlar yaratish, ekologik muvozanatni saqlash, tabiatdan talon-taroj qilmasdan oqilona foydalanish inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy ekologik neytral texnologiyalar qo'llashni talab etadi.

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar davlat buyurtmasi bo'yicha ilmiy muassasalar tomonidan budjet dasturlari va grantlari, shu jumladan xalqaro grantlar yordamida amalga oshirilishi lozim.

Shu jumladan:

5330666- TEMPUS-1-2012-1-LT-TEMPUS-JPCR "UZWATER: O'zbekiston oliy ta'lim tizimida suv resurslarini boshqarishga tayangan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va uni barqaror rivojlantirish bo'yicha magistratura uchun dastur yaratish" loyihasining bajarilishi.

"UZHEALTH: Atrof-muhit muhofazasi va inson salomatligi" loyihasining bajarilishi

BioEcUz: "O'zbekistonda barqaror Bioiqtisodiyot bo'yicha yangi magistratura o'quv dasturi" loyihasi doirasida universitet olimlari tomonidan xorijlik hamkorlar bilan ilmiy-amaliy ishlar olib borilgan.

Hozirgi vaqtda muhim vazifalardan biri atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy faoliyatni yanada oshirish.

6.5. Universitetda ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki

Universitet professor-o'qituvchilari va talabalarining keng ishtirokisiz atrof muhitni muhofaza qilish muammolarini hal etib bo'lmaydi. Bunda xodimlarning ekologik bilim darajasi alohida ahamiyatga egadir.

Hozirda ekologik jihatdan potensial xavfli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha jamoatchilik eshitishlarini o'tkazish, shuningdek, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tarkibiga fuqarolik jamiyati institutlarini kiritish amaliyoti mavjud emas.

Bundan tashqari, aholiga ekologik ta'lim berish tizimi mavjud emas.

## **7.Hamkorlik.**

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro ekologik hamkorlik juda muhim ahamiyat kasb eatadi, bunda - yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv -shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli tadbir choralar kompleksi tushuniladi.

Shuningdek, bugungi kunda BMTning mavjud 14 ta ixtisoslashgan tashkilotlaridan 6 tasi atrof-muhit muhofazasiga aloqador masalalar bilan shug'ullanadi. Xususan:

YUNESKO - ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhit muhofazasi sohasida maorif va kadrlar tayyorlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan.

FAO - oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkilot. U yer, suv, o'simlik va hayvonlardan kompleks foydalanish, ularning unumdorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanadi.

JST - xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti. Atrof-muhit muhofazasining sanitar gigiyenik masalalari bilan shug'ullanadi.

XMT - xalqaro meteorologik tashkilot. Iqlimdagi umum sayyoraviy o'zgarishlar bilan shug'ullanadi.



DMT - dengizlar bo'yicha davlatlararo maslahat tashkiloti. Bu tashkilot dunyo dengiz va okeanlaridan foydalanishning ekologik jihatlari bilan shug'ullanadi.

Yuqoridagilardan tashqari BMTning ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi kengashi - EKOSOS faoliyatida ham atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e'tibor beriladi.

Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy –tadqiqot faoliyatini va ekologik ta'limni takomillashtirish buyicha Buxoro davlat universiteti va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti bilan 11-aprel 2022-yil 2022-2026-yillarga mo'ljalangan shartnoma tuzulgan. Shunindek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi 34-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası va Buxoro viloyati Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi o'rtasida 3-mart 2022-yilda o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha shartnoma tuzildi.

**8. Amaliyotlarni tashkil etish.** Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası va Buxoro viloyati Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi o'rtasida 3-mart 2022-yilda o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha shartnoma tuzildi. Ushbu shartnomaga asosan talabalar 3 kursda 4 haftalik va 4 kursda 7 haftalik ishlab chiqarish amaliyotlarini boshqarma huzuridagi laboratoriyalarda va boshqarmaning tumanlardagi bo'limlarida o'tkazishga kelishilgan. Boshqarma xodimlari va universitet professor-o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil qilinadi. Ishlab chiqarish amaliyoti nihoyasida Boshqarma xodimlari va universitet professor-



o'qituvchilari bilan birgalikda hisobotlar qabul qilinadi. Malakaviy amaliyotlar universitet tomonidan talabalarni amaliy ko'nikmalarni boyitish maqsadida O'zbekistonni turli hududlarida: tog'li zonalari, ko'llari, suv omborlarida tashkil qilinadi.

## **9. Ekologik muammolarni hal etish yo'llari**

Universitetda atrof muhit sifatining yagona normativlari, standartlarini birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislarni mintaqa mamlakatlari uchun yagona metodika bo'yicha tayyorlash va olimlar oldida quyidagi vazifalar qo'yiladi.

1. Yerlarning cho'llanish va degradatsiya darajasini kamaytirish, yer maydonlarining sifati va unumdorligini qayta tiklash sohasida:

1.1. Yer resurslarini kompleks rejalashtirish va boshqarishni joriy etish salohiyatini yaratish;

1.2 O'rmon resurslari, yaylovlar va chorvachilikni, shuningdek, suv va yer resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash;

1.3 Orol dengizining O'zbekiston tomonidagi qurigan tubida dov-daraxtlar ekilgan maydonlarni ko'paytirishda ishtirok etish;

1.4 Dalalarni ihtalovchi va qirg'oqlarni mustahkamlovchi daraxtzor polosalarni yaratish, tog' yonbag'irlarida supa olish, o'rmon va mevali daraxtlarni ekish orqali o'rmon-melioratsiya tadbirlari kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;

1.5 Agrotexnik ekinlarni parvarish qilishda almashlab ekish keng joriy etilishini ta'minlash;

1.6 Buzilgan yerlarni qayta tiklash va rekultivatsiya qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

1.7 Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida kollektor-drenaj tarmog'ini rekonstruksiya qilish va tiklashni ta'minlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi suv omborlarini qurish;

1.8 Mineral o'g'itlarni bosqichma-bosqich organik o'g'itlar bilan almashtirishni ta'minlash va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashishning biologik usullarini keng joriy etish;

1.9 Organik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va qabul qilish;

2. Suv resurslarini qurib bitish va ifloslanishdan muhofaza qilish sohasida:

2.1 Qishloq xo'jaligi va kommunal sohada suv resurslari yo'qotishlarni kamaytirish;

2.2. Qishloq xo'jaligida suv iste'moli salmog'ini kamaytirish;

3. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida:

3.1. Ifloslantiruvchi moddalarni atmosfera havosiga chiqarish kamaytirilishini ta'minlashini o'rganish;

3.2 Elektr energiya ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiy tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar ulushini ko'paytirishni ilmiy asoslarini yaratish;

transportni gaz ballon yoqilg'isiga, elektr quvvatiga va boshqa muqobil yoqilg'i turlariga o'tkazish, shuningdek, tegishli yo'l infratuzilmasini tashkil etish;

3.3 Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishning solishtirma normalarini ishlab chiqish;

3.4 Yangidan foydalanishga topshirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo'llanilishini o'rganish;

4. Biologik resurslarni saqlash va ko'paytirish, shuningdek, o'rmon fondi sifati va hajmlarini oshirish sohasida:

4.1 Barcha tipdagi ekotizimlarni bir xilda qamrab olish va barcha qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tarmog'ining ekologik bog'lanishini ta'minlash orqali I — V toifalardagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonlarini o'rganish;

4.2 Noyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar va yovvoyi o'simliklar turlarini genetik banklarda saqlash texnologiyasi bilan tanishish;

4.3 Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlari, qo'riqlanadigan tabiat hududlarining davlat kadastrlari ma'lumotlari yagona axborot bazasi yaratilishini hamda ularni muhofaza qilish va oqilona foydalanish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida monitoring qilinish;

shifobaxsh, ozuqabop va texnik o'simliklarning yovvoyi holda o'suvchi turlari tabiiy zahiralari xatlovdan o'tkazish;

4.4 Yo'q bo'lib ketish arafasida turgan hayvonot dunyosi obyektlarini ko'paytirish bo'yicha mavjud pitomniklarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berish;

Qizil kitobga kiritilgan, pitomniklarda yetishtirilgan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni ko'paytirishni o'rganish;

4.5 Buxoro ixtisoslashtirilgan «Jayron» pitomnigida jayronlar sonini ko'paytirish, yangi tashkil etiladigan qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda jayronlarning yangi populatsiyalarini tashkil qilish;

biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholash mexanizmini ishlab chiqish;

4.6 "yashil belbog'" aksiyasi doirasida Buxoro viloyatida Buxoro shahri atrofida 849 million so'mlik loyiha bo'yicha eni to'rt qator bo'lgan 10 kilometr masofada "yashil belbog'" barpo etilgan. Ushbu hududda 14 ming 880 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. Buni yana davom etirish

4.7 Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektr energiyasini tarmoqqa yetkazib berishning maxsus xarid tarifi («yashil tarif»)ni joriy etish orqali foydalanishni rag'batlantiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; Buxoro davlat universitetida bugungi kunda muqobil energiyadan foydalanish yo'lga qo'yilgan va kelajakda universitet binolarni yoritishda muqobil energiyadan foydalanish rejalashtirilgan.

4.8 Universitetda atrof muhitning holati va yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik tahdidlar to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida respublikaning elektron ekologik xaritasini yaratish;

Universitet hududida aerodinamik diametri 10 mikrondan oshmaydigan (PM10), shu jumladan aerodinamik diametri 2,5 mikrondan oshmaydigan (PM2,5) o'lgan qattiq zarrachalar bilan atmosfera havosining ifloslanish darajasini monitoring bilan qamrab olinishini ta'minlash;

Universitetda atrof muhit obyektlari holatini baholash ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish;

davlat organlari, jamoat tashkilotlari va aholini atrof muhit holati to'g'risida ishonchli axborot bilan ta'minlash;

atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash sohasida:

ilmiy-texnik axborot bilan almashish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

Universitet olimlari ilmiy g'oyalarni tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan uskunalarning aniq sanoat namunalariga aylantirilishini ta'minlovchi mexanizmni yaratish hamda ularni texnologik jarayonga tatbiq etish;

ekologik toza va resurs tejaydigan texnologiyalar, ishlab chiqarishlar, xom ashyo, materiallari, mahsulot va uskunalarning turlari ishlab chiqilishini ta'minlash;

yuz berishi mumkin bo'lgan global va mintaqaviy iqlim o'zgarishlariga nisbatan tabiat tizimlari va xo'jalik faoliyati sektorlarining zaifligi tadqiq etilishini ta'minlash, ekologik xavf-xatarlarni aniqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

tirik organizmlarning yot va genetik o'zgartirilgan turlari tarqalishini tahlil etishni ta'minlash va mazkur jarayonlarni nazorat qilish, ularning salbiy oqibatlari darajasini pasaytirish bo'yicha tegishli usullarni ishlab chiqish;

atrof muhitni muhofaza qilish sohasida to'plangan bilimlarni tizimlashtirish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar muvofiqlashtirilishini tashkil etish;

suv iste'moli bo'yicha yangi me'yorlar, suv ta'minoti va ichimlik suv manbalari sifati normativlarining ilmiy-metodik asoslantirilishini ta'minlash;

hududlarni ekologik rayonlashtirish metodologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, salomatlik uchun eng xavfli hududlarni aniqlash uchun suv havzalari

va ichimlik suvining ifloslanish darajasini baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish;

atrof muhitni muhofaza qilish masalalarida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki, shuningdek, ekologik ta'limning uzluksiz tizimini yaratish sohasida:

atrof muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida milliy ma'ruzalarni muntazam tayyorlash va chop etish;

ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning albatta ishtirok etishini ta'minlashning samarali mexanizmni yaratish;

atrof muhitni muhofaza qilish jamoat inspektorlari institutining takomillashtirilishini ta'minlash;

barcha darajalardagi ta'lim o'quv dasturlariga ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarini kiritish orqali uzluksiz ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish;

ta'lim tizimining barcha darajalari uchun ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlashni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash.

## **9 .Muammoni yechimi va takliflar.**

1. Buxoro davlat universiteti xodimlari va talabalari hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta'minlash;

2. Atrof muhitga va xodimlari va talabalar salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

3. Atrof muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash.

4. Universitet hududidagi atrof muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo'riqlanishini ta'minlash;

5. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

6. Atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash;

7. Universiteti xodimlari va talabalari ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

8. Atrof muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish;

9. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

## **10. Boshqaruv**

Ekologik barqarorlikni Universitet boshqaruvi va qaror qabul qilish tizimiga kiritish.

Universitet ustuvorligi. Nazorat qilish uchun yangi Atrof-muhit barqarorligi guruhlari tuziladi strategiyani amalga oshirish, ilmiy kengashga hisobot berish.

## **11. Hisobot berish**

Birinchi bosqichda uglerod chiqindilari va biologik xilma-xillikka ta'siri bo'yicha yillik hisobot tizimini ishlab chiqish.